

SUDYALARNING MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI: TAHLIL VA TAKLIF.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883137>

**Sharipov Normurod**

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi Jinoiy Odil Sudlov fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Sud tizimida bugungi kunda sudyalarning mustaqilligi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham bu sohani rivojlantirish uchun izlanish va o'rganishlar natijalarining nazariy va amaliy ahamiati shundaki, mazkur ilmiy maqolani yozish orqali tadqiq etilgan kamchiliklar, bildirilgan takliflar hamda xulosalar kelgusida sud- huquq tizimi hamda sudyalar mustaqilligini ta'minlash usullarini yanada takomillashtirish hamda mavjud boshqa kamchiliklarni bartaraf etishda kata ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, sudyalarning mustaqilligi ularning moliyaviy jihatdan ta'minlash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasidagi Xalqaro tajribadagi ijobiy xususiyatlarni tadqiqi etish hamda ularni milliy qonunchiligimizga moslashtirish xususida takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.*

**Kalit so'zlar:** *sud tizimi, sudyalarning mustaqilligi, ijtimoiy himoya, adolat o'rnatish, oliy malaka komissiyasi, korrupsion holatlar, sudyalik muddati, odil sudlov.*

**Abstract:** *Independence of judges is one of the most urgent problems in the judicial system today. Therefore, the theoretical and practical significance of the results of research and studies for the development of this field is that researched by writing this scientific article shortcomings, suggestions and conclusions in the future judicial system and further improvement of the methods of ensuring the independence of judges and it is very important to eliminate other existing shortcomings are enough. In addition, the independence of judges is their financial aspect. International on providing and strengthening social protection to study the positive features of the experience and to make them national it is possible to develop proposals for adaptation to our legislation will give.*

**Key words:** *judicial system, independence of judges, social protection, justice, higher qualification commission, corruption cases, judicial term, justice.*

**Анотация:** *Независимость судей является одной из самых актуальных проблем в судебной системе на сегодняшний день. Поэтому теоретическая и практическая значимость результатов исследований и исследований для развития этой области заключается в том, что исследовал, написав эту научную статью недостатки, предложения и выводы в будущей судебной системе и дальнейшее совершенствование методов обеспечения независимости*

*судей и очень важно устранить другие имеющиеся недостатки достаточно. Кроме того, независимость судей является их финансовым аспектом. Международный по обеспечению и укреплению социальной защиты изучить положительные черты опыта и сделать их национальными возможна разработка предложений по адаптации к нашему законодательству дам.*

**Ключевые слова:** *судебная система, независимость судей, социальная защита, правосудие, высшая квалификационная комиссия, коррупционные дела, судебный срок, правосудие.*

Mazkur ilmiy maqola sud-huquq sohasidagi mavjud bo'lgan normativ- huquqiy hujjatlarni tadqiq qilish orqali ushbu sohadagi ayrim muammolarni aniqlash va sudyalar mustaqilligini ta'minlash chora tadbirlari samaradorligi hamda ularing amalda ishlashi uchun takliflar berish maqsadida tayyorlandi. Hozirgi kunda sudyalar mustaqilligini ta'minlash borasidagi harakatlar hamda qonunchilik hujjatlari ishlab chiqishda ushbu mavzu doirasida dolzarb masala sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

**Birinchi**dan, Sudyalar mustaqilligini ta'minlashdagi moliyaviy jihatlarining asosiy o'rin tutishi. Moddiy texnik ta'minlash borasidagi kamchiliklar;

**Ikkinchi**dan, sudyalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek, sudyalar faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash, ushbu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini izchil joriy qilish;

**Uchinchi**dan, Sudyalar mustaqilligini ta'minlashning huquqiy asoslarini shakllantirish, mansabdor shaxslarning sudyalar faoliyatiga aralashishini oluvchi demokratik tizim yaratish, aholining huquqiy ongini o'stirish va adolatni ta'minlash yo'li bilan sud tizimiga nisbatan ishonch hamd hurmat ruhini singdirish;

**To'rtinchi**dan, rivojlangan xorijiy davlatlarning sud huquq tizimida erishilgan yutuqlarni milliy qonunchiligimizga tadbiiq etish.

**Beshinchi**dan, O'zbekiston Respublikasi sud- huquq tizimi va sudlar mustaqilligini kafolatlovchi normativ- huquqiy hujjatlarni rivojlangan xorijiy davlatlar qonun hujjatlari bilan taqqoslagan holda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati.

**O'zbekiston Respublikasida sud- huquq tizimi va sudyalar mustaqilligini ta'minlash faoliyatidagi ishlarning dolzarbligi hamda zaruriy omil ekanligi quyidagi holatlarda o'z aksini topadi:**

- *Sudlar mustaqilligi odil sudlovni tashkil etishning eng zaruriy shartlaridan biridir;*
- *Sudyalar mustaqilligi mamlakatdagi korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda va qarshi kurashishda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi;*
- *Sudlarning mustaqilligini ta'minlash konsititutsiyada belgilangan ijtimoiy tenglikni ta'minlashning muhim omili ekanligi;*

• *Xalqaro reytinglar hamda mamlakatning xalqaro imidjini shakllantirishda, demokratiya indeksi hamda xalqaro inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar reytingida ijobiy baholanish uchun zarur ekanligi.*

**Adabiyotlar tahlili.** Sudlar mustaqilligi hamda sud – huquq tizimini takomillashtirish mavzusi eng dolzarb mavzulardan biri ekanligini bu mavzu yillar davomida tadqiqotlar hamda olimlar izlanishi orqali o'rganilganligidan ham bilsak bo'ladi. Bu mavzu yuzasidan o'rganilgan ishlar jumlasiga quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Jizzax tumanlararo iqtisodiy sudi raisi **Kuratov.A** va sudyasi **Bazarov.U** tomonidan yozilgan maqola va sud mustaqilligini ta'minlash chora- tadbirlari to'g'risidagi takliflar. Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot institute mas'ul xodimi **Otabek Toshev** ham ushbu masal yuzasidan ilmiy ish brogan. Bundan tashqari Yuridik fanlar doktori, professor **Mamasiddiqov M.M.** ham ilmiy izlanishlar olib borishgan hamda bularning barchasi o'z taklif va mulohazalarini bildirishgan. Bundan tashqari ushbu mavzu aynan shu soha xodimlari va huquqshunos olimlarning ko'pginasi tomonidan konseptul yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar predmeti sifatida o'rganilgan. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki ushbu mavzu bugungu kun nuqtayi nazaridan ancha dolzarb hisoblanadi.

**1.1. Sudlar mustaqilligining qonuniy kafolatlari. Ushbu qonunlarning ishlashi uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda qonunchilik normalari.**

Ushbu mavzuga to'xtalar ekanmiz avvalo sudyalarning mustaqilligining qonuniy kafolatlarini tahlil qilishimiz zarur. Chunki qonun bilan qo'riqlanmagan har qanday tushuncha o'zining mustahkam o'rnini topa olmaydi. Demak sudlar mustaqilligini belgilab beruvchi qonunlarimizga nazar tashlaydigan bo'lsak avvalo Konstitutsiyamizda belgilangan sudyalarning mustaqilligi, faqatgina qonunga bo'ysunishi hamda ularning faoliyatiga aralashishga hech qanday tarzda yo'l qoyilmasligi Konstitutsiyaning **111- va 112- moddalarida** belgilanganligi bu masalaning konstitutsion norma ekanligini hamda ushbu masala juda ham ahamiyatli ekanligini anglatadi. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan boshqa qonunchilik hujjatlari esa konstitutsiyaviy norma zamirida ishlab chiqilgan. Sudlarning mustaqilligi "Sudlar to'g'risida" gi qonunning 1- moddasida ham belgilangan. Bundan tashqari sudlar mustaqilligni ta'minlashning ahamiyatini anglagan holda tashkiliy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunga misol qilib sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini va shundan so'ng muddatsiz davrini belgilash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi negizida sud hokimiyati organi sifatida Sudyalarning oliy kengashini tashkil qilish, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish mexanizmini, shu jumladan, uning asoslarini aniqlashtirish orqali takomillashtirish va sud raislarining sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atishga oid vakolatini tugatish, O'zbekiston Respublikasi

Oliy sudiga adliya organlarining umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash sohasidagi vazifa va vakolatlarini o'tkazish kabi yangi tizimlarning joriy qilinishi orqali so'nggi yillarda sudyalarning mustaqilligini amalga oshirishni kafolatlovchi mexanizm ishga tushirildi.

Sudlar mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishini ta'minlashda Harakatlar strategiyasida belgilanganidek, sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini va so'ng muddatsiz davrining belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sudya lavozimida bo'lishning ushbu tartibi sudyadan zimmasiga yuklatilgan vazifani namunali va vijdonan bajarishni talab etishi bilan bir qatorda lavozimiga keyingi muddatga qayta saylanishi yoki tayinlanishi, o'z vazifalarini namunali ado etgach, keyinchalik o'n yilga va hatto muddatsiz davrga saylanishi yoki tayinlanishi uchun rag'batlantiruvchi qoida ham hisoblanadi. "Harakatlar strategiyasi"dagi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan navbatdagi muhim tadbirlardan biri – sudyalarning hamjamiyatining organi sifatida Sudyalarning oliy kengashini tashkil qilish, kengash tarkibining kamida yarmini sudyalarning hisobidan shakllantirish va unga sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga doir bir qator vakolatlar berilishi nazarda tutilganidir. Joriy yilning 6 aprelida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi to'g'risida"gi qonunda ushbu tuzilmaning faoliyatiga oid masalalar to'liq o'z ifodasini topdi. Bundan tashqari sudyalarning mustaqilligini ta'minlashning asosiy shartlari moddiy ta'minot hisoblanadi. Bu yo'lda so'nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida sudlarda oylik maoshlarning oshirilishi natijasi sudyalarning korrupsion holatlarga aralashishi keskin kamaytirildi. Bu orqali odil sudlovni amalga oshirishda kata qadam qo'yildi. Yangi qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida o'z aksini topdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi raisining sudyalarning daxlsizligini buzganlik va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik faktlari to'g'risidagi taqdimnomasi prokuratura organlari tomonidan bir oy muddatda ko'rib chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ko'rsatilgan faktlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganligi yoki qo'zg'atilishi rad etilganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashiga xabar berishi, sudyani huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so'roq qilish uchun chaqirishga faqat tegishli sudyalarning malaka hay'atining roziligi bilan yo'l qo'yilishi belgilab qo'yilishi esa Sudyalarning qo'rqmasdan o'ziga bo'lgan ishonch bilan adolatli sudlovni olib borishiga zamin yaratdi.

Ushbu mavzuga qonun hujjatlaridan tashqari nazariy tomondan yondashadigan bo'lsak qadim zamondan sudyalarning mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etgan. Bejizga qadimgi rim faylasuflari "Pereat mundus et fiat justitia", ya'ni "mayli dunyo barbod bo'lsin, lekin odil sudlov qaror topsin" deb ta'kidlashgan emas. Qadimgi Yunonistonda esa Sudyalarning hattoki uyiga ular bo'lmagan payt borish yoki chaqirmasdan turib qabuliga kirish taqiqlangan. Bu esa shubhasiz ularning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan.

**1.2. Sudlar mustaqilligini ta'minlashda olib borilayotgan tashkiliy va amaliy ishlar ko'lamini hamda ularning ahamiyati hamda ularni takomillashtirish masalalari. Statistika ma'lumotlari. Bugungi kundagi sudyalarning mustaqilligini cheklovchi omillar**

Mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash hisoblanadi. O'tgan yillar davomida sud hokimiyatini mustaqil tarmoq sifatida tashkil etish, uni o'tmishdagi jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda ishonchli himoya qiluvchi davlatning chinakam mustaqil institutiga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Sudlarning mustaqil, erkin faoliyat olib borishini ta'minlash borasida qo'yilgan dastlabki qadamlar o'z natijasini berayotganini oqlangan shaxslar misolida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, 2016-yilgacha sudlarda oqlov hukmi chiqarish amaliyoti deyarli bo'lmagan. Keyingi uch yilda esa 1 705 nafar inson sud hukmi bilan oqlandi. Sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning muhim kafolatidir. Ma'lumki, mamlakatimizda oxirgi yillarda xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini oshirish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. So'nggi uch yil davomida O'zbekiston nufuzli xalqaro reyting va indekslarning qonunchilik va sud-huquq tizimlari samaradorligi bo'yicha tuziladigan indikatorlarda barqaror o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2017-yildan bugungi kunga qadar Jahon bankining davlat rivojini aks ettiruvchi Boshqaruv sifati indikatorlarining Huquq ustuvorligi indeksida 6 ballga, Korrupsiyani tiyib turish indeksi bo'yicha 11 ballga yaxshilangan. Mazkur yutuqlar bilan O'zbekiston yirik ijobiy transformatsiya jarayoni bo'yicha dunyoning eng tez yaxshilanishi sur'ati bo'yicha 10 ta davlat qatoriga kirdi. Biroq, sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar ularning natijadorligi jihatidan ayrim muammolardan xoli emas. Xususan, 2017 — 2020-yillarda "Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkiloti e'lon qilib kelayotgan Qonun ustuvorligi indeksining 44 ta indikatoridan 33 tasida O'zbekiston Respublikasi o'rnini sezilarli darajada yaxshilangan bo'lganiga qaramasdan, mazkur indeksning 11 ta indikatorini bo'yicha holat o'zgarmagan. Xususan, hukumat vakolatlarining sud tomonidan samarali ravishda cheklanganligi, qonunlar va hukumat ma'lumotlarining ochiqligi, fuqarolik odil sudlovining korrupsiyadan xoliligi, jinoyat qidiruv tizimining samaradorligi, jinoyat sudi tizimining hukumat no'rin ta'siridan xoliligi kabi indikatorlarda O'zbekiston o'rnini turg'unligicha qolmoqda. Bu esa mamlakatimizda sudlarning mustaqilligi to'liq ta'minlanmaganligi va sudga ta'sirlar hanuzgacha mavjudligidan dalolat beradi. Sud hokimiyatining mustaqilligi mamlakat Konstitutsiyasi, qonunlari va siyosati tomonidan kafolatlanishi kerak va amalda ijroiya hokimiyati, uning idoralari va vakillari tomonidan, shuningdek hokimiyatning qonunchilik tarmog'i tomonidan bajarilishi zarur.

Sud hokimiyati sud ma'muriyatining ichki tuzilishi nuqtayi nazaridan mustaqil bo'lishi kerak.

***"Sudlarning mustaqilligi" atamasi ikki xil mazmunga ega:***

- institutsional mustaqillik;
- shaxsiy mustaqillik;

Ularning har ikkisi shuni taqozo etadiki, sud hokimiyati, sudyalari, ularning tarkibiy qismlari boshqa biron ommaviy hokimiyatga bo'ysunmasligi kerak. Institutsional mustaqillik shuni anglatadiki, sudyalari sud hokimiyatning har qanday boshqa tarmog'idan mustaqil, ya'ni ular hech qanday boshqa davlat organlariga, jumladan, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatiga bo'ysunmaydi va ular oldida javob bermaydi. Barcha boshqa davlat muassasalari sud hokimiyati qarorlarini hurmat qilishi va ularga rioya qilishi kerak.

Sud hokimiyatining individual mustaqilligi sudyalarning boshqa davlat va nodavlat tuzilmalar hamda ularning mansabdor shaxslaridan, oddiy fuqarolar va hattoki, bir sud doirasidagi sudyalari yoki yuqori instansiya sudyalari mustaqilligini anglatadi.

Sud hokimiyatining individual mustaqilligi quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- ❖ sudyalarning boshqa respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslaridan mustaqilligi;
- ❖ sudyalarning sud raislaridan mustaqilligi; sudyalarning yuqori turuvchi sud sudyalari mustaqilligi;
- ❖ sud hay'atlarida sudyaning boshqa sudyalardan mustaqilligi; sudyalarning boshqa har qanday fuqarolardan mustaqilligi tushuniladi.

Ma'lumki, sudyalari huquqiy maqomini belgilanishida sudlar mustaqilligi tamoyili katta rol o'ynaydi va dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida bu tamoyilning huquqiy asoslari asosiy qonun bilan mustahkamlangan. Sudlarning mustaqilligini amalda ta'minlash va sudlar faoliyatiga har qanday bevosita yoki bilvosita tashqi ta'sirlar, bosim yoki aralashishlarning oldini olish va sudlarni ijro va qonunchilik hokimiyat organlaridan mustaqil holda faoliyat olib borish imkoniyati yaratilishi zarur.

Sudlarning mustaqilligiga daxl qiluvchi quyidagi omillarni keltirib o'tishimiz mumkin. Xususan:

-Sud organlarining mustaqilligiga daxl qiluvchi omillar sifatida deputatlar oldida, shuningdek ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyati rahbari bo'lgan hokimlar oldida axborot berishlari ijro hokimiyat organlariga bo'ysunishni keltirib chiqaradi. Sudyalikka nomzodlarni tayinlash bo'yicha vakolatli bo'lgan Sudyalari oliy kengashi organi tarkibida ijro hokimiyati organlarning vakillari mavjud bo'lib, bu esa mustaqil sudyani tayinlashda xalqaro standartlarga mos kelmaydi. Sudyalikka nomzodlarni tayinlashda ijro hokimiyati organlarning vakillarini qatnashmasligini ta'minlash kerak.

-Sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil holda ish yuritishi ta'minlanishi zarur. Sudlar faoliyati ustidan Parlamentning qo'mitalari

tomonidan parlament nazorati o'rnatilishi yoki huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish maqsadida sudlarda parlament tekshiruvini amalga oshirilishi sud organining alohida mustaqil hokimiyat sifatida faoliyatiga aralashish hisoblanadi.

Sudyalarning mustaqil faoliyat olib borishlari uchun ichki ta'sirlardan ham himoya qilinishi lozim. Viloyat sudi raislarining sudyani intizomiy javobgarlikka tortishdagi vakolatlarining saqlanib qolayotganligi sudyalarning mustaqilligiga va ularning mustaqil qaror qabul qilishlarida o'z ta'sirini keltirib chiqarmoqda. Viloyat sud raisi ayni bir vaqtda sudyalarning malaka hay'ati raisi sifatida sudyani intizomiy javobgarlikka tortish, ma'muriy javobgarlikka tortishga rozilik berish va sudyalik vakolatini to'xtatib turish to'g'risida qarorlar qabul qilish va muddatidan ilgari vakolatini tugatish haqida xulosa berish kabi jazolash vakolatlarining mavjudligi esa sudyaning mustaqil holda ishni ko'rishda o'z ta'sirini keltirib chiqaradi. Sudyalarga intizomiy ish qo'zg'atish to'g'risidagi qarorni Oliy sud raisining o'zi qabul qilish vakolatining mavjudligi esa ushbu funksiyani kollegial ravishda amalga oshirishning xalqaro standartlarga zid keladi. Natijada sudya ko'rayotgan ishi bo'yicha yuqori turuvchi sud raisining ko'rsatmalarini bajarishga va ruhiy bosim ostida o'z fikriga zid ravishda qarorini chiqarishga majbur bo'ladi.

- Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal ravishda joriy etish hozirgi zamon talabidir. Hozirda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari lozim darajada bo'lmaganligi sababli sudlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarga interfaol huquqiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlar talab darajasida emas.

### **1.3. Rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligi, tajribasi, sudlarning tashkiliy tuzilmalari ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda xalqaro huquqiy normalar.**

Sudyalar mustaqilligini ta'minlashda xalqaro huquq normalariga yuzlanadigan bo'lsak avvalo **Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari Konvensiyasiga** yuzlanishimiz zarur. Ushbu Konvensiya BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1985 yil 26 avgustdan 6 sentyabrgacha Milanda bo'lib o'tgan yettinchi kongressida qabul qilingan va Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi 40/32-sonli rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan. Bu konvensiyada sudyalarning mustaqilligini ta'minlash uchun qaratilgan turli xil chora tadbirlar berilgan jumladan unda quyidagi tajribalar ilgari suriladi.

Agar sudyalarning lavozimida uzoq kafolatlangan muddatda bo'lishmasa, ularning mustaqilligiga jiddiy xavf mavjud, ular qarorlar chiqarayotganida bosimga uchrashlari mumkinligini inobatga olgan holda ularga agar o'z vazifalarini sidqidildan bajarishsa uzoq muddatga sudyalik qilish kafolatini berish kerakligi aytilgan. Ushbu norma bugungi kunda AQSH, Fransiya hamda Buyuk Britaniya davlatlarining sudlar faoliyatini tashkil etuvchi qonunchilik hujjatlarida yetakchi o'rinni egallaydigan normalardan biridir. Bu tajribani o'rgangan holda bizning sud tizimimizda ham sudyalik muddatini belgilashda yangilik amalga oshirilganligini yuqorida aytib o'tdik..

“Sud lavozimlariga tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy xislat va qobiliyat, shuningdek huquq sohasida tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo’lishlari lozim. Sudyalarni tanlashning har qanday usuli g’ayriqonuniy sabablar bo’yicha sudyalarning tayinlanishiga yo’l qo’ymasligini kafolatlashi kerak. Sudyalarni tanlaganda ular irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa ahvoli bo’yicha ajratilmasligi kerak, biroq yuridik lavozimga nomzod tegishli mamlakatning fuqarosi bo’lishi kerakligi haqidagi talabga ajratish sifatida qaralmasligi lozim” ligi ushbu Konvensiyaning 13- moddasida keltirilgan. Ushbu normaga asosan AQSh hamda G’arbiy Yevropa davlatlarining ko’pchilik davlatlari o’z sud tizimlarida o’zgartirish qilishgan. Shu sababdan ham ayniqsa AQSh davlatida qora tanli sudyalar hamda chet davlat fuqarolari bo’lgan sudyalar ko’pchilikni tashkil etishi statistika ma’lumotlarida keltirilgan.

Sud organlarining qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” 4-prinsipida qo’shimcha tarzda mustahkamlangan bo’lib, unga ko’ra “Odil sudlov jarayoniga g’ayriqonuniy yoki ruxsat etilmagan aralashuvlar bo’lmasligi kerak hamda sudlar chiqargan qarorlari qayta ko’rilmaydi. Ushbu prinsip qonunga muvofiq amalga oshiriladigan sud organlari chiqargan hukmlarning sud tartibida qayta ko’rilishiga yoki yengillashtirilishiga to’sqinlik qilmaydi”. Ushbu normaning hayratlanarli jihati shundaki AQSh, Shvetsiya, Islandiya va Niderlandiya davlatlarida sudyalar ko’rgan ishni qaytadan ko’rish mumkin emasligi hisoblanadi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki bu davlatlarda sudyalarning mustaqilligi maksimal darajada ta’minlangan. AQShda faqatgina sudyaning ruhiy yoki aqliy kasallikka chalinishigina uning so’nggi yillardagi ishini ko’rishga asos bo’lishi belgilangan.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR:**

Xulosa qilib aytganda, sud hokimiyati mustaqilligi tushunchasi quyidagilarda namoyon bo’ladi:

✓ **birinchidan**, sud hokimiyati konstitutsiyada mustahkamlangan mustaqillikka ega bo’lishi lozim, jumladan, u boshqa hokimiyat tarmoqlari ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo’lishi lozim;

✓ **ikkinchidan**, sud hokimiyati ichki masalalarda, jumladan, sud ma’muriyatchiligida, suddagi ishlarning sudyalar o’rtasida taqsimlanishida ham mustaqil bo’lishi lozim,

✓ **uchinchidan**, sud hokimiyati moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo’lishi lozim va o’z funktsiyalarini samarali amalga oshirishga yetarli mablag’ga ega bo’lishi lozim;

✓ **to’rtinchidan**, sud hokimiyati qarorlar qabul qilishda mustaqil bo’lishi lozim, hukumat va boshqa muassasalar sud organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni hurmat qilishi va unga rioya qilishlari shart;

✓ **beshinchidan**, sud hokimiyati yurisdiktsion vakolatga ega bo’lishi lozim, vakolat masalasini aniqlashda sudlarning mustaqilligi bildiradi;

✓ **oltinchidan**, sud hokimiyati adolatli sud jarayonini tashkil qilish va asoslantirilgan qaror chiqarishni ta'minlashga majbur.

Sudlarning mustaqilligiga daxl qiluvchi tashqi va ichki ta'sirlarning oldini olish bo'yicha qo'yidagi takliflar ilgari suriladi:

➤ **birinchidan**, sud raislarining xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida axborot berishi o'rniga, har bir viloyat sudlarida tashkil etiladigan veb-saytlar orqali sud faoliyatiga doir axborotlarni davriy ravishda muntazam e'lon qilib borish amaliyotini joriy etish;

➤ **ikkinchidan**, sudlarning mustaqilligini ta'minlash va ularning maqomini oshirish maqsadida "Sudyalar maqomi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish taklif qilinadi.

➤ **uchinchidan**, sudyalarning mustaqil ravishda ish ko'rishlarini ta'minlash maqsadida sud raisining sudyalarni jazolash va sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish bo'yicha Oliy sud raisining vakolatlarini bekor qilish va sudyaga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish masalasini ko'rib chiqish uchun Sudyalar oliy kengashiga taqdim etish huquqi berilishi taklif etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirib kelinayotgan izchil, tizimli va keng ko'lamdagi islohotlardan pirovard maqsad - bu sud hokimiyatining mustaqilligini amalda ta'minlashdir. Jamiyatda sud hokimiyatining mustaqilligi amalda ta'minlanmas ekan, adolatli odil sudlovni amalga oshirishda to'siqlar paydo bo'ladi va bu sudlarning adolatli qarorlar qabul qilinishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Sudyalar Oliy Kengashi to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2016 yilning 21 oktyabrida e'lon qilingan PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi".

7. BMT ning **Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari Konvensiyasi**. (Ushbu Konvensiya BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1985 yil 26 avgustdan 6 sentyabrgacha Milanda bo'lib o'tgan yettinchi kongressida qabul qilingan va Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi 40/32-sonli rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan).

8. Jizzax tumanlararo iqtisodiy sudi raisi **Kuratov.A** va sudyasi **Bazarov.U** tomonidan yozilgan maqola va sud mustaqilligini ta'minlash chora- tadbirlari to'g'risidagi ilmiy maqolasi.

9. Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti mas'ul xodimi **Otabek Toshevning** ilmiy desertatsiyasi.

10. Yuridik fanlar doktori, professor **Mamasiddiqov M.M. ning** ilmiy desertatsiyasi.

**INTERNET SAHIFALAR:**

- 1) [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
- [www.yurida.uz](http://www.yurida.uz)
- [www.paruz.uz](http://www.paruz.uz)
- [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
- [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- [www.elibrary.ru](http://www.elibrary.ru)
- [www.link.springer.com](http://www.link.springer.com)
- [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
- [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)